



HUMANISM IN EASTERN PHILOSOPHY: THE TRADITIONS OF CONFUCIUS, BUDDHA, AL-FARABI, AND AVICENNA

Umid Kadrboyevich Burliyev

Senior Lecturer, Uzbekistan State University of Physical Education and Sport

Independent Researcher, National University of Uzbekistan

E-mail: buriyevumid2@gmail.com

Science ID: MJZ-0526-0124

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Eastern philosophy, humanism, Confucius, Buddha, al-Farabi, Avicenna, humaneness.

Received: 04.09.26

Accepted: 05.09.26

Published: 06.09.26

Abstract: This article examines the formation and development of humanistic ideas in Eastern philosophy through a comparative analysis of the philosophical views of Confucius, Buddha, Abu Nasr al-Farabi, and Avicenna. It explores the essence of humanistic principles associated with the spiritual and moral development of the individual, virtue, justice, knowledge, tolerance, social responsibility, and the pursuit of perfection. The study analyzes the common and distinctive features of these thinkers' conceptions of human-society relations, moral virtues, and the ideal of the virtuous and perfect human being, while also substantiating their theoretical significance for the development of contemporary humanistic thought.

SHARQ FALSAFASIDA GUMANIZM: KONFUTSIY, BUDDA, FOROBIY, IBN SINO AN'ANALARI

Umid Kadrboyevich Burliyev

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti katta o'qituvchisi

O'zbekiston Milliy universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Email: buriyevumid2@gmail.com

Ilmiy identifikatsiya raqami: MJZ-0526-0124

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Sharq falsafasi, gumanizm, Konfutsiy, Budda, Forobiy, Ibn Sino, insonparvarlik.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Sharq falsafasida gumanizm gʻoyalarining shakllanishi va rivojlanishi Konfutsiy, Budda, Abu Nasr Forobiy va Ibn Sino falsafiy qarashlari asosida qiyosiy-tahliliy jihatdan tadqiq etiladi. Unda insonning maʼnaviy-axloqiy kamoloti, ezgulik, adolat, bilim, bagʻrikenglik, jamiyat oldidagi masʼuliyat va komillikka intilish kabi gumanistik tamoyillarning mazmun-mohiyati ochib beriladi. Sharq tafakkurining mazkur namoyandalari taʼlimotlaridagi inson va jamiyat munosabatlari, axloqiy fazilatlar hamda barkamol inson konsepsiyasining oʻzaro mushtarak va farqli jihatlari tahlil qilinib, ularning zamonaviy gumanistik tafakkur rivojidadagi nazariy ahamiyati asoslanadi.

ГУМАНИЗМ В ВОСТОЧНОЙ ФИЛОСОФИИ: ТРАДИЦИИ КОНФУЦИЯ, БУДДЫ, АЛЬ-ФАРАБИ И ИБН СИНЫ

Умид Кадрбаевич Бурлиев

Старший преподаватель Узбекского государственного университета физического воспитания и спорта

Независимый исследователь Национального университета Узбекистана

E-mail: burliyevumid2@gmail.com

Научный идентификационный номер: MJZ-0526-0124

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: восточная философия, гуманизм, Конфуций, Будда, аль-Фараби, Ибн Сина, человеколюбие.

Аннотация: В статье на основе сравнительно-аналитического подхода исследуются становление и развитие идей гуманизма в восточной философии на примере философских воззрений Конфуция, Будды, Абу Насра аль-Фараби и Ибн Сины. Раскрывается содержание гуманистических принципов, связанных с духовно-нравственным совершенствованием человека, добродетелью, справедливостью, знанием, толерантностью, социальной ответственностью и стремлением к совершенству. Анализируются общие и специфические черты представлений о взаимоотношениях человека и общества, нравственных добродетелей и концепции совершенного человека в учениях данных мыслителей, а также обосновывается их теоретическое значение для развития современного гуманистического мышления.

Kirish. Sharq falsafasida gumanizm masalasini o'rganish Sharq tafakkurida inson qadr-qimmati, axloqiy yetuklik va ma'naviy kamolot masalalarining qanday shakllanganligini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Konfutsiy, Budda, Forobiy va Ibn Sino kabi mutafakkirlarning qarashlari insonparvarlikning turli jihatlarini yoritib, shaxs va jamiyat o'rtasidagi uyg'un munosabatlarni ta'minlashga xizmat qiluvchi g'oyalarni ilgari suradi. Ushbu ta'limotlar nafaqat o'z davrining ijtimoiy-ma'naviy muammolariga yechim taklif qilgan, balki bugungi kunda ham bag'rikenglik, adolat, ma'rifat va inson huquqlarini qadrlash kabi umuminsoniy qadriyatlarning rivojlanishiga nazariy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Shu sababli Sharq gumanistik an'alarini tahlil qilish zamonaviy jamiyatda ma'naviy taraqqiyot, madaniyatlararo muloqot va inson manfaatlarini ustuvor qo'yishga qaratilgan yondashuvlarning falsafiy ildizlarini ochib berishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Sharq falsafasida gumanizm masalasini tadqiq etishda insonning ma'naviy-axloqiy kamoloti, ezgulik, adolat, bilim va jamiyat oldidagi mas'uliyati bilan bog'liq konseptual qarashlar muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Xususan, Konfutsiy ta'limotida insonparvarlik (ren), axloqiy komillik va ijtimoiy uyg'unlik masalalari markaziy o'rin egallab, shaxs va jamiyat munosabatlarining axloqiy asoslarini yoritadi (Konfutsiy, 2003, pp. 18–20). Buddaviylik falsafasida insonning ruhiy poklanishi, azob-uqubatlardan xalos bo'lishi va barcha mavjudotlarga nisbatan rahm-shafqat tamoyillari gumanistik mazmun kasb etadi. Forobiy va Ibn Sino falsafiy merosida esa insonning aqliy va ma'naviy kamoloti, fazilatli jamiyat, bilim va axloqning o'zaro aloqadorligi masalalari yanada tizimli falsafiy-nazariy asosda talqin etilgan. Ayniqsa, Forobiyning fazilatli jamiyat haqidagi qarashlari inson kamoloti va ijtimoiy farovonlikni o'zaro bog'liq jarayon sifatida tushunish imkonini beradi (Al-Farobiy, 1985, pp. 87–89). Mazkur tadqiqotda qiyosiy-tahliliy, tarixiy-falsafiy, tizimli va aksiologik metodlardan foydalanilib, Konfutsiy, Budda, Forobiy va Ibn Sino ta'limotlaridagi gumanistik g'oyalarning umumiy va o'ziga xos jihatlari tahlil qilinadi.

Muhokama. Sharq falsafasida gumanizm insonning qadr-qimmati, ma'naviy kamoloti va jamiyatdagi axloqiy mas'uliyatini ulug'lovchi g'oyalar majmui sifatida namoyon bo'ladi. G'arb gumanizmidan farqli ravishda Sharqona gumanizmida inson individual mavjudot sifatida emas, balki oila, jamiyat va tabiat bilan uzviy bog'liq bo'lgan ijtimoiy-ma'naviy mavjudot sifatida talqin etiladi. Ushbu yondashuvda insonparvarlik, adolat, rahm-shafqat, bag'rikenglik, ezgulik va ma'rifat kabi fazilatlar inson kamolotining asosiy mezonlari hisoblanadi. Qadimgi Xitoy falsafasidagi Konfutsiy ta'limoti, hind falsafasidagi buddaviylik g'oyalari hamda musulmon Sharqi mutafakkirlari, xususan, Forobiy va Ibn Sino qarashlarida gumanizm insonning axloqiy

yetukligi va jamiyat farovonligi bilan chambarchas bog'langan holda talqin qilinadi. Shu bois Sharq falsafasidagi gumanizmning mazmun-mohiyati insonni ma'naviy barkamollikka yetaklash, ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlash va umuminsoniy qadriyatlarni qaror toptirishga qaratilgan falsafiy qarashlar tizimida o'z ifodasini topadi.

Sharqona insonparvarlik g'oyalarining shakllanishi murakkab sotsiomadaniy, diniy-falsafiy va aksiologik omillar ta'sirida yuzaga kelgan. Sharq jamiyatlarida qadimdan mavjud bo'lgan kollektivism, ijtimoiy hamjihatlik va an'anaviy qadriyatlar tizimi insonni alohida individ sifatida emas, balki muayyan ijtimoiy birlikning tarkibiy qismi sifatida talqin etishga asos bo'lgan. Konfutsiychilik, buddaviylik, zardushtiylik va islom kabi diniy-falsafiy ta'limotlar insonning ma'naviy-axloqiy kamolotini jamiyat taraqqiyotining muhim sharti sifatida e'tirof etib, rahm-shafqat, adolat, ezgulik va bag'rikenglik kabi gumanistik qadriyatlarning institutsionallashuviga xizmat qilgan.

Shu bilan birga, Sharq mutafakkirlari tomonidan ishlab chiqilgan antropologik, etik va gnoseologik qarashlar insonning aql-zakovati, axloqiy mas'uliyati va ma'rifiy salohiyatini yuksak qadriyat sifatida talqin qilgan. Natijada Sharqona gumanizm individual manfaatlarni jamoaviy farovonlik bilan uyg'unlashtiruvchi, ma'naviy barkamollikni esa ijtimoiy taraqqiyotning fundamental omili sifatida baholovchi yaxlit falsafiy konsepsiya darajasiga ko'tarilgan.

Sharq tafakkurida gumanizm masalasi inson, jamiyat va axloq o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni e'tirof etishga asoslanadi. Sharq mutafakkirlari insonni nafaqat biologik yoki individual mavjudot, balki muayyan ijtimoiy-madaniy makon va axloqiy munosabatlar tizimining faol subyekti sifatida talqin qilganlar. Konfutsiy ta'limotida insonparvarlik (jen) va burch (li) tamoyillari jamiyatdagi ijtimoiy uyg'unlikning asosi deb qaralsa, buddaviylikda rahm-shafqat va zo'ravonlikdan tiyilish inson va jamiyat o'rtasidagi axloqiy muvozanatni ta'minlovchi omil sifatida baholanadi. Forobiy va Ibn Sino qarashlarida esa insonning ma'naviy-axloqiy kamoloti jamiyat taraqqiyotining zarur sharti bo'lib, shaxsning fazilatlarini bilan ijtimoiy farovonlik o'rtasida dialektik bog'liqlik mavjudligi ta'kidlanadi. Shu bois Sharq gumanizmida axloq normativ-regulyativ tizim sifatida inson xatti-harakatlarini tartibga soladi, jamiyat esa ushbu axloqiy qadriyatlarning amaliy namoyon bo'lish maydoni vazifasini bajaradi. Natijada Sharqona gumanistik tafakkur inson manfaatlarini jamoaviy manfaatlar bilan uyg'unlashtirish, ma'naviy barkamollikni esa ijtimoiy taraqqiyotning asosiy aksiologik mezonini sifatida qarash orqali o'ziga xos falsafiy mazmun kasb etadi.

Sharq xalqlari tarixida turli sohalarda bo'lgani kabi gumanizm masalasida ham yuksak darajadagi g'oyalarning shakllanishi tarixi miloddan avvalgi 6 asrga borib taqaladi. Bu davrdagi

buyuk mutafakkirlardan biri Konfutsiy nafaqat ilmiy izlanishlari, ilmiy g'oyalari bilan insonparvarlikni yuksak baholadi balki o'z amaliy hayotida ham insonparvarlikni yuksak namunalari ko'rsatib bera oldi.

Konfutsiy ta'limotida insonparvarlik va axloqiy kamolot masalasi ijtimoiy-falsafiy tizimning markaziy kategoriyalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Konfutsiy insonning mohiyatini uning biologik yoki individual xususiyatlari orqali emas, balki axloqiy o'zini takomillashtirish, ijtimoiy mas'uliyat va ma'naviy yetuklik darajasi orqali belgilaydi. Uning qarashlarida insonparvarlikni ifodalovchi "jen" (ren) konsepsiyasi shaxsning boshqa insonlarga nisbatan mehr-oqibat, adolat, hurmat va fidoyilik kabi fazilatlarni namoyon etishini anglatadi. Shu bilan birga, Konfutsiy axloqiy kamolotni jamiyatdagi ijtimoiy tartib va siyosiy barqarorlikning muhim sharti sifatida baholab, axloqiy me'yorlar (li), adolat (yi) va donolik (zhi) tamoyillarini mukammal insonni shakllantirishning asosiy omillari sifatida talqin etadi.

Uning fikricha, jamiyat taraqqiyoti huquqiy majburlash yoki zo'ravonlik orqali emas, balki shaxslarning ichki axloqiy ongini rivojlantirish va fazilatli insonlarni tarbiyalash orqali ta'minlanadi. Shu sababli Konfutsiy gumanizmi insonning ma'naviy-axloqiy transformatsiyasini ijtimoiy uyg'unlik va davlat boshqaruvining fundamental asosi sifatida e'tirof etuvchi normativ-etik konsepsiya sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan u shunday deydi: "Insonparvar odam o'zi mustahkam turishni istasa, boshqalarning ham mustahkam turishiga yordam beradi; o'zi muvaffaqiyatga erishishni istasa, boshqalarning ham muvaffaqiyatga erishishiga ko'maklashadi." (Konfutsiy, 2014, p. 30) Mazkur fikr Konfutsiy ta'limotidagi "jen" (insonparvarlik) konsepsiyasining mohiyatini yorqin ifodalaydi. Mutafakkir insonning axloqiy kamolotini faqat shaxsiy manfaat yoki individual yutuqlar bilan cheklamaydi, balki uni boshqa insonlarning farovonligi va kamoloti bilan uzviy bog'liq holda talqin qiladi. Bu yerda insonparvarlik ijtimoiy hamkorlik, o'zaro mas'uliyat va axloqiy birdamlik tamoyillari orqali namoyon bo'ladi. Konfutsiy nazarida haqiqiy fazilatli inson ("junzi") o'z manfaatlarini jamiyat manfaatlaridan ajratmaydi, aksincha, o'zining ma'naviy yetukligini boshqalarga yordam berish va ularning rivojlanishiga ko'maklashish orqali namoyon etadi. Shuning uchun ham ushbu iqtibos Konfutsiy gumanizmining asosiy g'oyasi bo'lgan shaxsiy axloqiy takomillashuv va ijtimoiy uyg'unlik o'rtasidagi dialektik bog'liqlikni ifodalaydi.

Konfutsiy falsafasining asosiy tamoyillari inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni axloqiy-ratsional tartibot asosida tashkil etishga qaratilgan normativ konsepsiyani ifodalaydi. Ushbu ta'limotning markazida "jen" (insonparvarlik), "li" (marosim va ijtimoiy me'yorlar), "yi" (adolat va burch), "zhi" (donolik) hamda "xiao" (ota-onaga hurmat va farzandlik burchi) tamoyillari turadi. Konfutsiy fikricha, jamiyatning barqarorligi siyosiy institutlarning kuchi bilan

emas, balki ijtimoiy rollarning to'g'ri bajarilishi va axloqiy me'yorlarning ichki e'tiqod darajasiga ko'tarilishi bilan ta'minlanadi. Shu ma'noda u davlatni huquqiy majburlash mexanizmi sifatida emas, balki axloqiy tarbiya va ma'naviy yetakchilik instituti sifatida talqin qiladi.

Konfutsiy falsafasida "ismlarni to'g'rilash" (zhengming) prinsipi ham muhim o'rin tutadi; unga ko'ra, har bir shaxs o'z ijtimoiy maqomi va vazifasiga mos ravishda faoliyat yuritishi lozim. Mazkur tamoyil ijtimoiy strukturaning funksional uyg'unligini ta'minlashga xizmat qiladi. Demak, Konfutsiy falsafasi individual axloqni ijtimoiy boshqaruv bilan integratsiyalash orqali ma'naviy jihatdan tartibga solingan jamiyat modelini yaratishga qaratilgan falsafiy-siyosiy ta'limot sifatida namoyon bo'ladi. Xususan, uning shunday fikri mavjud: "Agar hukmdor o'zini to'g'rilasa, xalq unga ergashadi; hukmdor noto'g'ri bo'lsa, uning so'zlari ham buyruq bo'lmaydi." (Konfutsiy, 2014, p. 17) Ushbu iqtibos Konfutsiy falsafasining "axloqiy boshqaruv (de zheng)" tamoyiliga bevosita taalluqlidir. Unda siyosiy hokimiyatning legitimligi huquqiy majburlash yoki tashqi kuch orqali emas, balki hukmdorning shaxsiy axloqiy kamoloti orqali belgilanishi ta'kidlanadi. Konfutsiyga ko'ra, hukmdorning ichki fazilatlarini jamiyatga "namunaviy ta'sir" (moral exemplariness) ko'rsatadi va bu ta'sir ijtimoiy tartibning asosiy regulatori hisoblanadi. Shunday qilib, ijtimoiy ierarxiya vertikal buyruqbozlik emas, balki axloqiy yetakchilikka asoslangan gorizontallik legitimlik mexanizmi sifatida talqin etiladi. Bu yondashuv Konfutsiy tizimida "li" (ijtimoiy me'yorlar) va "jen" (insonparvarlik) tamoyillarining siyosiy-funksional integratsiyasini ham ko'rsatadi.

Konfutsiy axloqiy-falsafiy tizimida "jen" konsepsiyasi shaxslararo munosabatlarni tartibga soluvchi universal axloqiy ontologiya sifatida talqin qilinadi va u oddiy insoniy mehr-oqibat tushunchasidan ancha kengroq mazmunga ega. "Jen" insonning ichki ma'naviy strukturasini shakllantiruvchi refleksiv axloqiy ong bo'lib, u individning o'zini ijtimoiy munosabatlar tarmog'ida anglash va boshqalar bilan o'zaro bog'liqlikni idrok etish qobiliyatini ifodalaydi. Bu konsepsiya nafaqat normativ axloqiy talab, balki shaxsning ichki transformatsiyasi orqali yuzaga keladigan etik habitus (axloqiy odatlanish tizimi) sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. "Jen"ning epistemologik jihati shundaki, u bilim va axloq o'rtasidagi uzviylikni ta'minlab, insonning amaliy faoliyatida axloqiy intuitivlikni shakllantiradi. Shu bilan birga, u ijtimoiy makonda empatiya va rol-almashuvga asoslangan inter-subyektivlikni vujudga keltirib, ijtimoiy munosabatlarni mexanik tartib emas, balki ichki ma'naviy uyg'unlik orqali boshqariladigan tizimga aylantiradi.

Demak, "jen" Konfutsiy falsafasida individual axloqni universal ijtimoiy uyg'unlik bilan bog'lovchi fundamental kategoriya bo'lib, u insonni ma'naviy subyekt sifatida shakllantiruvchi

kompleks falsafiy prinsip sifatida namoyon bo'ladi. Shu o'rinda Konfutsiyning: "O'zingga ravo ko'rmagan narsani boshqalarga ham ravo ko'rma" (Konfutsiy, 2014, p. 24) degan fikrini keltirish o'rinli bo'ladi deb o'ylayman. Uning ushbu fikri "jen" konsepsiyasining amaliy-axloqiy mezonini ifodalaydi va Konfutsiy etik tizimida universallashtiruv prinsipining muhim ko'rinishi sifatida talqin qilinadi. Unda shaxsning axloqiy qarori o'zini markazga qo'ygan subyektiv istaklardan emas, balki inter-subyektiv tenglik va o'zaro axloqiy moslik tamoyillaridan kelib chiqishi kerakligi ta'kidlanadi. Bu yondashuv "jen"ni faqat hissiy mehr-shafqat emas, balki ratsional asosga ega bo'lgan normativ etik qoida sifatida ko'rsatadi. Shuningdek, u axloqiy xulq-atvorni ichki empatiya va refleksiv o'zini anglash orqali tartibga soluvchi mexanizm sifatida namoyon etadi, bu esa Konfutsiy gumanizmining ijtimoiy uyg'unlikka yo'naltirilgan tizimli tabiatini yanada chuqurlashtiradi.

Sharq olamida insonga hurmat, yaxshilik va tenglikni targ'ib qilgan va eng asosiysi Hindistondagi kasta tizimini yuqotishga o'ringan tarixiy shaxs Budda hisoblanadi. Uning hayoti ham insonparvarlikning muhim amaliy ko'rinishi sifatida tarix sahnasida qolgan.

Budda ta'limotining gumanistik asoslari inson mavjudligini ekzistensial-ontologik muammo sifatida talqin qilish va uning yechimini ma'naviy-axloqiy transformatsiya orqali amalga oshirish g'oyasiga tayanadi. Buddaviy falsafada markaziy o'rinni egallovchi to'rt haqiqat (Chorva Arya Satya) inson hayotidagi azob-uqubat (dukkha)ni universal fenomen sifatida tahlil qilib, uning sababi sifatida istak va bog'lanish (tanha)ni ko'rsatadi hamda undan qutulish yo'lini sakkiz bosqichli yo'l (Arya Ashtangika Marga) orqali belgilaydi. Ushbu tizim gumanistik jihatdan insonni passiv subyekt emas, balki o'z taqdirini ma'naviy-intellektual sa'y-harakatlar orqali o'zgartira oladigan faol axloqiy agent sifatida ko'radi. Buddizmda ahimsa (zo'ravonliksiz yashash), karuna (rahm-shafqat) va maitri (umumiy mehr-muhabbat) tamoyillari ijtimoiy munosabatlarning etik asosini tashkil etib, har qanday shakldagi zo'ravonlik va diskriminatsiyani rad etadi. Shu nuqtai nazardan, Budda gumanizmi individual najot va ichki ozodlikni emas, balki barcha sezuvchi mavjudotlarning azob-uqubattan xalos bo'lishini ko'zlovchi universal etik altruizm sifatida namoyon bo'ladi.

Budda ta'limotini o'rgangan o'zbek faylasuflaridan Q.Nazarov Sunday yozadi: "Buddaviylik insonning azob-uqubattan xalos bo'lishini ichki ma'naviy poklanish, nafsni tiyish va rahm-shafqatga asoslangan axloqiy kamolot orqali amalga oshiriladigan jarayon sifatida izohlaydi." (Nazarov, 2011. –B. 46) Ushbu ilmiy talqinda Budda ta'limotining gumanistik mohiyati insonni markazga qo'ygan etik-soteriologik tizim sifatida ochib beriladi. Ya'ni, inson najoti tashqi kuchlar yoki ijtimoiy institutlar orqali emas, balki ichki ma'naviy o'zini boshqarish (self-regulation) va axloqiy takomillashuv orqali amalga oshadi. Bu yondashuv Buddizmni

universal insonparvarlikka yo'naltirilgan falsafiy tizim sifatida ko'rsatib, unda rahm-shafqat va zo'ravonlikdan voz kechish tamoyillari ijtimoiy axloqning asosiy regulativ mexanizmi bo'lib xizmat qilishini anglatadi.

Buddaviylikdagi gumanizm doirasida mehr-shafqat (karuna), bag'rikenglik (kshanti) va zo'ravonlikni rad etish (ahimsa) tamoyillari axloqiy tizimning normativ-aksiologik yadrosini tashkil etib, inson xulq-atvorini deontologik va soteriologik asosda tartibga soluvchi integrativ prinsiplar sifatida talqin qilinadi. Ushbu tamoyillar nafaqat individual etik fazilatlar, balki ijtimoiy munosabatlarni konfliktologik zo'ravonlikdan holi bo'lgan non-konfrontativ model asosida tashkil etish mexanizmi sifatida ham amal qiladi. Karuna barcha sezuvchi mavjudotlarning azob-uqubatini bartaraf etishga yo'naltirilgan empatik ong strukturasini ifodalasa, kshanti qarama-qarshilik va stressli ijtimoiy vaziyatlarda ichki barqarorlikni saqlashga xizmat qiluvchi psixo-axloqiy rezistentlikni anglatadi; ahimsa esa har qanday shakldagi jismoniy va ma'naviy zo'ravonlikni inkor etuvchi universal etik imperativ sifatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan bu tamoyillar Budda ta'limotining gumanistik mohiyatini yanada chuqurlashtirib, insonni ijtimoiy konfliktlarni kuch orqali emas, balki ma'naviy transformatsiya va empatiya asosida hal etuvchi axloqiy agent sifatida shakllantiradi hamda global etik tizimlar uchun universal normativ asos vazifasini bajaradi. Bu o'rinda Budda shunday uqtiradi: "Na nafrat nafrat bilan yo'qoladi, balki faqat mehr bilan yo'qoladi — bu abadiy qonundir." (Budda, 2015, – p. 67) Ushbu iqtibos Buddaviy axloqiy tizimning markaziy g'oyasi bo'lgan ahimsa (zo'ravonlikni rad etish) va karuna (mehr-shafqat) tamoyillarini ifodalaydi. Unda ijtimoiy va psixologik konfliktlarning yechimi tashqi kuch ishlatish yoki qarama-qarshilikni kuchaytirish orqali emas, balki ichki axloqiy transformatsiya va empatik ong orqali amalga oshirilishi ta'kidlanadi. Bu yondashuv Buddizmida nafrat va zo'ravonlikning o'zi yangi zo'ravonlikni keltirib chiqaruvchi karmatik sabab-oqibat zanjiri sifatida talqin qilinishini ko'rsatadi. Shuning uchun haqiqiy gumanistik yechim — bu ongni poklash, hissiy muvozanatni tiklash va universal mehr-muhabbatga asoslangan etik regeneratsiyadir.

Forobiy falsafasida "komil inson" va "fazilatli jamiyat" konsepsiyalari o'zaro uzviy bog'langan sotsiologik-etik va teleologik tizim sifatida talqin qilinadi. Mufakkirga ko'ra, insonning ma'naviy-axloqiy kamoloti faqat individual sa'y-harakat natijasi emas, balki uning ijtimoiy muhit, ta'lim-tarbiya va aqliy faoliyat bilan dialektik aloqasi orqali shakllanadigan jarayondir.

Komil inson (al-insan al-kamil) Forobiy tizimida aql-idrok, axloqiy fazilatlar va ilmiy bilimlar uyg'unligiga erishgan shaxs sifatida namoyon bo'lib, u jamiyatning ma'naviy-intellektual rivojlanishiga faol ta'sir ko'rsatadi. "Fazilatli shahar" (al-madina al-fadila) esa

siyosiy-falsafiy ideal model bo'lib, unda ijtimoiy institutlar adolat, aql va ezgulik tamoyillariga asoslanadi hamda har bir individ o'z tabiiy qobiliyati va fazilatiga muvofiq funksional o'rin egallaydi.

Forobiy ushbu ikki kategoriyaning teleologik ierarxiya asosida bog'lab, jamiyatning oliy maqsadi sifatida baxt-saodatga (sa'ada) erishishni belgilaydi; bu esa aqlning ustuvorligi va axloqiy fazilatlarning institutsional darajada mustahkamlanishi orqali amalga oshadi. Shu jihatdan Forobiyning gumanistik-siyosiy qarashlari inson kamolotini jamiyatning strukturaviy mukammalligi bilan integratsiyalashgan holda talqin etuvchi yaxlit falsafiy konsepsiya sifatida ahamiyat kasb etadi. Bu haqda Farobiy shunday yozadi: "Fazilatli shahar ahli bir-biriga yordam berib, baxt-saodatga erishishga intiladigan insonlardir." (Farobiy, 2001, –B. 78) Ushbu iqtibos Forobiy falsafasidagi "fazilatli jamiyat" konsepsiyasining markaziy g'oyasini ifodalaydi va unda ijtimoiy hamjihatlik teleologik birlik sifatida talqin qilinadi. Mutafakkir jamiyatni mexanik yig'indi emas, balki umumiy maqsad — baxt-saodat (sa'ada) sari yo'naltirilgan axloqiy-intellektual tizim sifatida ko'radi. Iqtibosda ta'kidlangan o'zaro yordam prinsipi ijtimoiy munosabatlarning normativ asosini tashkil etib, individlar o'rtasidagi hamkorlikni axloqiy majburiyat darajasiga ko'taradi. Bu yondashuv Forobiy gumanizmining o'ziga xos jihatini — inson kamolotini faqat shaxsiy emas, balki ijtimoiy-ontologik jarayon sifatida talqin qilishini yaqqol namoyon etadi.

Forobiyning inson va jamiyat haqidagi qarashlari ijtimoiy-falsafiy ontologiya va teleologik antropologiya doirasida shakllangan yaxlit konsepsiyani tashkil etadi. Mutafakkirga ko'ra, inson o'z tabiatiga ko'ra "ijtimoiy mavjudot" bo'lib, uning kamoloti faqat jamiyat bilan o'zaro aloqada, ya'ni inter-subyektiv munosabatlar tizimida amalga oshadi. Jamiyat esa Forobiy falsafasida mexanik yig'indi emas, balki ma'lum maqsad — baxt-saodat (sa'ada)ga yo'naltirilgan normativ-axloqiy tuzilma sifatida talqin qilinadi. Insonning aqliy salohiyati va axloqiy fazilatlari jamiyatning sifat darajasini belgilovchi asosiy mezon bo'lib, bu jarayonda "fazilat" tushunchasi ijtimoiy tartibotning aksiologik regulyatori vazifasini bajaradi. Forobiy jamiyatni "fazilatli shahar" va "fozil bo'lmagan jamiyat" turlariga ajratib, ularning farqini aql, adolat va ma'naviy yetuklikning ustuvorligi bilan izohlaydi. Shu nuqtai nazardan, uning qarashlari inson kamolotini jamiyatning ma'naviy-axloqiy mukammalligi bilan dialektik bog'liq holda tushuntiruvchi, gumanistik yo'nalishga ega kompleks falsafiy tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Forobiyning "Fazilatli shahar" nazariyasi gumanizmning Sharq falsafasidagi o'ziga xos ko'rinishini ifodalovchi ijtimoiy-teleologik va normativ-etik konsepsiya sifatida talqin etiladi. Ushbu nazariyada jamiyatning oliy maqsadi moddiy manfaatlar yoki siyosiy hokimiyat emas,

balki insonlarning baxt-saodat (sa'ada)ga erishishi bilan belgilanadi, bu esa gumanistik yondashuvning markaziy g'oyasi — inson qadr-qimmatini yuksaltirish tamoyilini aks ettiradi. Forobiy jamiyatni funksional birlik sifatida tasvirlab, unda har bir individ o'z tabiiy qobiliyati va aqliy salohiyatiga mos ravishda ijtimoiy vazifani bajarishi lozimligini ta'kidlaydi; bu esa ijtimoiy adolat va tenglikning struktural-differensial modelini shakllantiradi. "Fazilatli shahar"da rahbar va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlar majburlashga emas, balki axloqiy yetakchilik va aqlga asoslangan legitimlikka tayanadi, bu esa insonni ongli va ma'naviy subyekt sifatida qadrlashni anglatadi. Shu jihatdan, Forobiy gumanizmi insonni jamiyat markaziga qo'ygan holda, uning kamolotini ijtimoiy uyg'unlik va axloqiy tartibot bilan dialektik bog'liq jarayon sifatida talqin qiluvchi integrativ falsafiy tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Ibn Sino falsafasida inson qadr-qimmatini va aqlning ustuvorligi masalasi falsafiy antropologiya, gnoseologiya hamda axloqiy-metafizik tizim doirasida izchil asoslanadi. Mutaakkirga ko'ra, insonning haqiqiy mohiyati uning jismoniy tuzilishida emas, balki rational jon (nafs an-natiqa) orqali namoyon bo'ladigan aqliy-idrokiy faoliyatida mujassam. Shu bois aql insonni boshqa mavjudotlardan ajratib turuvchi asosiy ontologik mezon sifatida talqin qilinib, uning bilish jarayonidagi empirik va mantiqiy (logik) bosqichlar orqali haqiqatni anglash imkoniyatini ta'minlaydi. Ibn Sino inson qadr-qimmatini uning axloqiy kamolotga intilishi, ilmga chanqoqligi va aqliy faolligi bilan bog'lab, bu jarayonni potentsiallikdan aktual holatga o'tish (quvvatdan faollikka transformatsiya) sifatida izohlaydi.

Aqlning ustuvorligi esa nafaqat epistemologik prinsip, balki insonning axloqiy tanlovlarini belgilovchi normativ reguliyator sifatida ham namoyon bo'ladi, chunki to'g'ri bilim to'g'ri xulqni shakllantiradi. Shu nuqtai nazardan Ibn Sino gumanistik qarashlarida insonning qadr-qimmatini uning aqliy mukammallikka erishish darajasi bilan o'lchanib, ma'naviy barkamollik va ilmiy tafakkur jamiyat taraqqiyotining fundamental sharti sifatida talqin etiladi. Ushbu fikrlari Ibn Sinoning o'zi quyidagi so'zlari orqali bildiradi: "Insonning haqiqiy kamoloti uning aql kuchi orqali haqiqatni anglashga erishishi va shu orqali ruhiy yetuklik darajasiga ko'tarilishidadir." (Ibn Sino, 2005, —p. 93) Ushbu mazmuniy iqtibos Ibn Sino falsafasida aqlning epistemologik va ontologik ustuvorligini ifodalaydi. Mutaakkirga ko'ra, inson kamoloti hissiy idrokdan boshlangan bilish jarayonining intellektual abstraksiya va faol aql bilan birikish bosqichlari orqali yuqori darajaga ko'tarilishi bilan belgilanadi. Bu jarayonda aql nafaqat bilish vositasi, balki insonning ma'naviy-axloqiy shakllanishini belgilovchi normativ prinsip sifatida ham amal qiladi. Shu bois Ibn Sino tizimida inson qadr-qimmatini uning biologik mavjudligi bilan emas, balki rational substansiya sifatidagi intellektual salohiyati va uni amalga oshirish darajasi bilan o'lchanadi.

Sharq mutafakkirlari — Konfutsiy, Budda, Forobiy va Ibn Sino gumanistik qarashlarining mushtarak jihatlari ularning inson, axloq va jamiyat haqidagi umumiy aksiologik va normativ-falsafiy yondashuvlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Birinchidan, barcha ta'limotlarda inson markaziy kategoriya sifatida qaralib, uning ma'naviy-axloqiy kamoloti jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining asosiy sharti sifatida talqin qilinadi, ya'ni inson qadr-qimmatini uning ichki fazilatlarini va ma'naviy yetukligi bilan belgilanadi. Ikkinchidan, Sharq mutafakkirlari axloqni ijtimoiy tartibotning normativ-regulyativ mexanizmi sifatida ko'rib, adolat, rahm-shafqat, bag'rikenglik va ezgulik kabi qadriyatlarni inson xulq-atvorini boshqaruvchi universal mezonlar darajasiga ko'taradilar. Uchinchidan, ularning barchasi inson kamolotini faqat individual jarayon emas, balki ijtimoiy muhit, ta'lim-tarbiya va jamiyat bilan uzviy bog'liq dialektik rivojlanish jarayoni sifatida izohlaydi, bunda shaxs va jamiyat o'rtasida o'zaro ta'sir va mas'uliyat tamoyili ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan Sharq gumanistik an'analari insonni ma'naviy barkamollikka yetaklovchi va ijtimoiy uyg'unlikni ta'minlovchi yaxlit falsafiy tizim sifatida umumiy konseptual birlikni tashkil etadi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, Sharq falsafasida gumanizm Konfutsiy, Budda, Forobiy va Ibn Sino ta'limotlari misolida insonni markaziy ontologik va aksiologik kategoriya sifatida talqin etuvchi yaxlit falsafiy tizimni ifodalaydi. Ushbu an'analarda insonning ma'naviy-axloqiy kamoloti jamiyat barqarorligi va ijtimoiy uyg'unlikning asosiy sharti sifatida qaralib, inson qadr-qimmatini uning ichki fazilatlarini, axloqiy ong darajasi hamda aqliy salohiyati bilan belgilanadi. Shu bilan birga, Sharq mutafakkirlari axloqni ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi normativ mexanizm sifatida talqin qilib, rahm-shafqat, adolat, bag'rikenglik va ezgulik kabi qadriyatlarni universal gumanistik mezonlar darajasiga ko'taradilar. Ularning qarashlarida inson kamoloti individual jarayon bilan bir qatorda ijtimoiy muhit va tarbiya bilan dialektik bog'liq holda rivojlanadigan murakkab tizim sifatida izohlanadi. Natijada Sharq gumanizmi insonni ma'naviy barkamollikka yetaklovchi hamda jamiyatda axloqiy uyg'unlikni ta'minlovchi integrativ falsafiy paradigma sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Konfutsiy. (2003). The Analects (E. Slingerland, Trans.). Hackett Publishing Company.
2. Al-Farabi. (1985). Alfarabi: The political writings: Selected aphorisms and other texts (C. E. Butterworth, Trans.). Cornell University Press.
3. Konfutsiy. Lun Yu (E. Slingerland). Indianapolis, 2014. IN: Hackett Publishing. –p. 30.

4. Nazarov Q. Falsafa. Toshkent:. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2011. –B. 46.
5. Budda. Dhammapada (J. Mascaró, tarj.). London: Penguin Classics, 2015. 5/5. –p. 67.
6. Farobiy A. N. Fozil odamlar shahri. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti. 2001. –B. 78.
7. Ibn Sino. The Metaphysics of The Healing (Al-Shifa) (M. E. Marmura, Trans.). Provo, UT: Brigham Young University Press. 2005. –p. 93.